

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL. TA'LIM OLİSHNING O'RNI

Toshmanova Sevinch

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Ingliz tili 2 fakulteti Xorijiy til va adabiyot talabasi

Mazkur maqolada bugungi davr oliy ta'lismuassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yahshi usullaridan biri mustaqil talim olish xususida va uning vazifalari haqida so'z boradi. Shuningdek mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va ularning yechimlari sifatida mustaqil ta'lism olishning yangi usullari taklif berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ijodiy muhit, optimal natija, mustaqil ta'lism, mustaqil fikrlash.

THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Toshmanova Sevinch, student of Foreign language and literature, Faculty of English 2, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

In this article, one of the best ways to improve the creative potential of students in today's higher education institutions is about independent study. Also, in this direction, an attempt is made to propose new methods of independent education as problems and their solutions.

Key words: Motivation, creative environment, optimal result, independent education, independent thinking.

Ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lism tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Bu to'g'risida Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakat salohiyati bilim va tafakkurda ekanligiga urg'u berib, "**Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li**"[1] ekanligini ta'kidlab o'tdi. Xususan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lismni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida talimning zamонавиyy metodologiyasini yaratish va bu tizimni yanada takomillashtirish taqozo etiladi. OTM talabasining ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yahshi usullaridan biri bu - mustaqil talim hisoblanadi. Bu talabani bilimlarni o'zlashtirishning faol usullariga yo'naltirishni, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni,

shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda innovatsion ta'limdan individuallashtirilgan ta'limga o'tishini ko'rsatadi.

Mustaqil talim olish talabalarni o'quv mashg'ulotida olgan bililarini hayotda namoyon etish, o'qituvchi ishtirokisiz mustaqil qaror qabul qilishiga, yechim bo'yicha optimal natijaga erishish, isbotlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyida keltirilgandan tashqari mustaqil ta'lim talablarga o'z qiziqishlarini chuqurroq o'rghanish hamda ular bilan ishslash, o'zini ustida mustaqil ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish va kelajakda o'z iste'dodini qanday va qayerga yo'naltirishlari to'g'risida muhim qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

Biroq bugungi kunda mustaqil ish mavzusining malum bir muayyan muammoga yo'nallirilmaganligi balki aksariyat hollarda turli manbaalardan olinadigan tayyor materiallar orqali yoritilishi hamda mustaqil ishni amaliyotda tatbiq qilmaslik kabi holatlar talim sifati samaradorlgining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri mustaqil talim mavzularini to'g'ridan-to'g'ri fan dasturidagi mavzular bilan bir xilligi deb ko'rsatilgan. Aynan shu sabablar ostida talaba mustaqil ish bilan o'z salohiyatini oshirish maqsadida shug'ullanmasdan, aksariyat holatlarda avvalgi mustaqil ishlardan ko'chirish, internet tarmog'idan mavzuga oid taiyor materialarni nusxalash, hamda amaliy mashg'ulotda o'tilgan topshiriqlarni joylab qo'yish orqali amalga oshirmoqdalar. Chunki bugungi kunda talabalar uchun mustaqil talim faqatgina qo'shimcha ishdekk namoyon bo'lmoqda.

Buning yechimi mustaqil ta'lim soatlari va vazifalarini oshirish yoxud belgilangan vaqtga qat'iy chegara qo'yish emas, avvalo, talabalarning mustaqil ishi nima ekanligini aniq belgilash kerak, so'ngra oliy talimda oquv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini bir qancha mezonlar asosida belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan, bir yoki kichik-kichik bir nechta muammolar ko'tarilishi, va unda talabaning mavzuga bo'lgan yechim yoritilishi, xulosa qismida o'zi uchun o'zlashtirgan bilimni qisqa lo'nda bayon etilishi, shuningdek qiziqarli faoliyatlar, misollar, masalalar va boshqalar kiritilishiga imkon yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek Imkon qadar mustaqil ishni konkret belgilangan qolipdan xoli bo'lishi mustaqil ta'limning talabalarga qiziq va unga bo'lgan ehtiyojini shakillantirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi, 20-dekabr 2022-yil.
 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-muassasalarida-talabalarning-mustaqil-ta-lim-olishini-tashkil-etishning-yangi-usullarini-yaratish>
 3. <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-o-quv-yurtlarida-talabalarning-mustaqil-o-quv-faoliyatlarini-yangi-innovatsiya-texnikalari-asosida-tashkil-etish>
- 4.Nilufar Nematullayevna Zubaydova (2019) The teaching of English for specific purpose.: NEW YORK. USA,-30-33-B.